

**AMIR TEMUR SALTANAT HARBIY XAVFSIZLIGINING  
TA'MINLANISHIDA MUHIM VOSITA – ICHKI RAZVEDKA  
KONTEKSTIDA  
(retrospektiv tahlil)**

**Xodjixodjayev F.M.**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi*

*Umumiy taktika kafedrasida o'qituvchisi*

**ARTICLE INFO.**

**Annotatsiya:**

**Kalit so'zlar:**

*ichki razvedka, elchi, savdogar,  
qalandar, darvesh, hunarmand.*

*Ushbu maqolada Amir Temur saltanatida harbiy xavfsizlikni ta'minlashda ichki razvedka xizmatining o'rni va ahamiyati, ularning xizmat faoliyati va funksional majburiyatlari hamda ichki razvedka xizmati organining tashkiliy tuzilishi qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy manbalar asosida yoritilgan.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

**KIRISH**

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga harbiy sohada ham amalga oshirilayotgan islohatlarni uzluksiz olib borish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Prezidenti – Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy ilm-fanni rivojlantirish, milliy harbiy san'atimiz tarixi bo'yicha tizimli fundamental tadqiqotlarni tashkillashtirish, harbiy sohadagi xalqaro, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka nisbatan xavf va tahdidlarni o'rganish, milliy Qurolli Kuchlar va harbiy san'atni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy asoslash, shuningdek, mamlakatimizning oliy harbiy ta'lim muassasalarida malakali harbiy-ilmiy kadrlarni tayyorlash” [1] to'g'risida asoslangan vazifa va strategik maqsadlarni belgilab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy sohaga katta e'tibor berilmoqda. O'tmishdagi boy harbiy merosimizni keng miqyosda tadqiq etish va ularni amaliyotga joriy qilish yuzasidan ko'plab qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish” [2, 35-b] yuzasidan buyuk ajdodlarimizning boy harbiy-ilmiy merosini o'rganish va ularni amaliyotda qo'shinlarda keng targ'ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘z davrining buyuk sarkardasi, davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur saltanat xavfsizligini ta‘minlashda bor umrini sarflaganligi va bu masalada har bir sohani jalb etganligini buyuk tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”lari, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Rui Gonsales de Klavixoning “Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406)”, G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomai G‘azzovati Hindiston (Hindiston safari kundarigi)” va boshqa bir qator tarixiy asarlarda bayon etilgan hamda bugungi kungacha keng o‘rganib kelinmoqda. Amir Temur saltanat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida – Eron, Turon, Mag‘rib, Shom, Misr, Iroqi arab, Iroqi ajam, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jeta Dashti, Dashti Qipchoq, Xorazm, Xo‘tan, Qobuliston, Boxtarzamin, Hindiston mamlakatlarini birlashtirib, “**xavfsiz hudud**”, markazlashgan saltanat barpo etdi.

Amir Temur saltanat mustaqilligi, yurt ozodligi, uning hududiy yaxlitligi va fuqarolarining erkin va farovon hayoti, ularning huquqlarini tashqi va ichki xavf va tahdidlardan himoya qilish tizimini tashkil etish bilan davlatning harbiy xavfsizligini ta‘minlashga erishgan. Davlatning ichki xavf va tahdidlardan himoya holatini yaratishda inson omiliga bog‘liq bo‘lgan mavjud barcha sohalardan foydalanganligi, ushbu sohalarni niqob ostida jamoat orasiga kiritish bilan zaruriy ma‘lumotlarga ega bo‘lish hamda ushbu xabarlardan, xususan, davlat ichida harbiy-siyosiy vaziyat haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi va shunga nisbatan o‘zining kelgusidagi rejalarini shakllantirib, rivojlantirib amalga oshirganligini ko‘rish mumkin. Amir Temur tomonidan mamlakatning hududiy yaxlitligi va daxlsizligini ta‘minlashda tashqi va ichki xavf-xatarlarning oldini olish, uni o‘z vaqtida bartaraf etishga katta e‘tibor qaratganligini e‘tirof etish joizdir. **U saltanat xavfsizligini ta‘minlashda asosan uch halqada:**

*birinchi halqada* – **o‘zga davlatlarda** (bosib oluvchi, qaram qiluvchi va boshqa agressiv davlatlarga nisbatan);

*ikkinchi halqada* – **chegara sarhadlarida** (suv omborlari, chorvadorlar uchun yaylovlar va boshqalar);

*uchinchi halqada* – **mamlakatning ichki tizimida** (qishloqlar, ovullar, tumanlar, shaharlar orasidagi masofa va boshqalar) amalga oshirgan [4; 150-160-b.].

Amir Temur tomonidan davlatning ichki xavf va tahdidlardan himoya qilishda har bir ulus, viloyat, tuman, qishloq va ovullardagi ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy vaziyatdan uzluksiz xabardor bo‘lib turish maqsadida ichki razvedka xizmatini tashkil etish va uning faoliyati maxfiylikini ta‘minlash muhim omillardan biri sifatida ko‘rib kelgan.

Saltanat harbiy xavfsizligini ta‘minlashda uch halqada siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardan keng foydalangan. Shu bilan birga, davlat razvedka xizmati sohalarning vazifalari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘lish mumkin. Bular:

*birinchi halqada* – tashqi (agentura) razvedka xizmati,

*ikkinchi halqada* – kontr (ichki agentura) razvedka xizmati;

*uchinchi halqada* – qo‘shin razvedka xizmatlari joriy etilgan [4; 150-160-b.] 1-rasmda keltirilgan.

**Ichki razvedka xizmati** – dushmanning ichki razvedka bo‘linmalari, vositalari va tadbirlarini aniqlash, ularning faolitini kuzatish, ularga yolg‘on ma‘lumotlarni yetkazish orqali qarshi kurashish, faoliyatiga barham berish maqsadida amalga oshirishi kerak bo‘lgan.



**1-rasm. Amir Temur saltanati qurolli kuchlarining razvedka turlari.**

Davlatning ichki harbiy xavfsizligi ta'minlanishida ichki razvedka xizmati faoliyat yuritib, davlat tomonidan boshqarilgan. Amir Temur ichki razvedka xizmatini ham tashqi razvedka xizmati singari muhim vosita hisoblab, unda ham siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda faoliyat olib boruvchi shaxslar niqobi ostida davlat ichida hukumatga qarshi kuch (dushman) razvedkasini, yo'l to'sar qaroqchilar, o'g'ri va boshqa paydo bo'lishi mumkin bo'lgan turli guruhlar va davlat siyosatiga qarshi ig'vo gaplarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash, ular haqida ma'lumotlarni Saroy devoniga yetkazib turish vazifasini bajaruvchi vositalar shakllantirib, bir tizim yaratgan.

Ichki razvedka – mamlakatdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlikni saqlash, qo'shinlar ichidagi ruhiy holat, ularning kayfiyati, ahvolidan xabardor bo'lib turish maqsadida tashkil etilgan. Bundan tashqari, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, alohida vaziyatlarda Amir Temur boshqa davlatlardan rasmiy delegatsiya va boshqa shaxslar kelganda xavfsizlikni ta'minlash, elchilar va delegatsiyaning xatti-harakatini kuzatish maqsadida mamlakat bo'ylab “yo'llarga mingta chopqunchi, mingta tuya va mingta ot mingan xabargirlar” tayinlangan [3; 187-b.]. Mazkur ayg'oqchilarni esa lavozimiga qarab oltin, kumush va misdan tayyorlangan payzalar (guvoohnoma) berilgan. Kim payzaga ega bo'lsa, Amir Temur huzuriga to'siqsiz, to'g'ridan-to'g'ri kirishga ruxsat etilgan.

Amir Temur davlatning ichki harbiy-siyosiy vaziyati, uning o'ziga xos ichki dushmanlari mavjud ekanligi, ulardan o'z vaqtida xabardor bo'lish va unga nisbatan zaruriy chora-tadbirlar qo'llash zaurligi haqida o'zining tuzuklarida quyidagilarni keltiradi: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim, ortiq hurmatladim. Ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalari bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo'l berdim. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Har elning ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim” [2; 137-b.]. Temur tuzuklariga yana qaraymiz, “Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni “Yaso” asosida jazolasinlar, fasodchi, buzuqchi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Ezma-bekorchi odamlarni viloyat va shaharlarda qoldirmasinlar” [2; 138-b.].

Amir Temur davlat ichida g'arazgo'y, nobakor kuchlardan saqlash va ularga nisbatan qarshi kurash olib borish uchun ular haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etilardi. Bunga erishish uchun bir qator ichki razvedka vositalarini yaratadi, jumladan, bular, hokimlar oldidagi xabarnavislar, jamoat (bozor, machit) mirshablari, savdogarlar, sayyidlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bu shaxslarning faoliyati davlatning ichki xavfsizligi ta'minlanishida o'ta muhim hisoblanib, davlat ichida sodir bo'layotgan har bir voqea va xodisalardan xabar berish tizimini shakllanganligini kuzatish mumkin.

Ichki razvedkani tashkillashtirish asosiy maqsadlardan yana biri – bu mamlakat ichidagi umumiy ichki vaziyat (dushman) haqida aniq ma'lumotlarga erishish, bu ma'lumotlar asosida – to'g'ri siyosat yuritish va o'z vaqtida kerakli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish bilan belgilangan. Davlat ichida belgilangan qonun va tartib qoidalarini amalga oshirish, raiyat orasida hukumatga nisbatan yomon kayfiyati, ularning podshohga bo'lgan munosabati yoki boylar, amirlar, ulus, viloyat, shahar, qishloq dorug'a (hokim)lari, qabila va urug' boshliqlari, soliq yig'uvchilari hamda boshqa barcha amaldorlarning xatti-harakatlari, ularning aholiga nisbatan bo'lgan munosabatlari, shuningdek, bozorlardagi narx-navo

haqidagi barcha ma'lumotlar juda muhim hisoblangan. Bu ma'lumotlar ham Samarqand poytaxti Saroy devoniga yetkazilib turilgan.

Davlatning ichki xavfsizligini ta'minlashda kontrrazvedka muhim vosita hisoblanib, hozirgi paytda ham ushbu vositalardan deyarli barcha davlatlarda, ayniqsa, dunyoning yetakchi davlatlarida, jumladan: AQSh, RF, Angliya va HXRIlarida ham juda rivojlangan.

Tuzuklarida "Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar o'rduvida kundalik voqealarni yozuvchilarni<sup>1</sup> tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan yozib tursinlar" [2; 139-b.].

Amir Temur juda ko'p mamlakatlarni fath etib, barcha bo'ysinuvdagi mamlakatlarning har bir viloyat, shahar, tuman va qishloqlarga maxsus amaldor – voqeanavis<sup>2</sup>larni tayinlagan. Ularning vazifasi o'sha hududda sodir bo'lgan va bo'layotgan barcha voqea va hodisalarni topish, yig'ish, o'rganish va bu haqda o'zining dorug'a<sup>3</sup>siga axborot berish bilan birga poytaxt Samarqandga Saroy devoniga yuborish belgilab berilgan. Xabar yetkazish muddatlari belgilangan bo'lib, kunlik, xaftalik va oylik ma'lumotlar hisobot ko'rinishida markaziy devonga yetkazib turish uchun mas'ul bo'lishgan.

Davlat ichida ma'lumotlar devonga yetkazilishi, ma'lumot almashinuvi tizimli ravishda o'ziga xos tarzda tashkil etilgan bo'lib, tartibga solingan. Har bir viloyat, shahar va qishloqlar orasida aholining sonidan kelib chiqqan holda otlarni shay holatda choparlar uchun ushlab turilgan. Bu otlardan Amir Temur oldiga qarab borayotgan elchi yoki choparlar foydalanishi ko'zda tutilgan. Chunki, olib borilayotgan xabar Amir Temurga, ya'ni, Samarqand devoniga to'xtovsiz va tezlik bilan yetkazilishi muhim hisoblanganligi maqsad qilib belgilangan.

Bu haqda Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ma'lumotlari ko'ra, "... ularga saroy otlaridan keltirib berishdi. Sohibqiron iqboliga tashrif buyuruvchilar uchun shu yerdan boshlab, tegishli joylarda saltanatga qarashli otlar tayyorlab qo'yilgan, bu otlardan mehmonlar yo'llarda kecha-kunduz foydalanishlari mumkin. Bu joyda yuzta, ikkinchi joyda ikki yuz ellikta, yana bir joyda ikki yuzta mana shunday chopqir otlar to shahri Samarqandga yetib borguncha shay qilib qo'yilgan" yoki "... Undan tashqari, elchilar safarni tezlashtirishlari uchun, har kuni otlarini almashtirib berdi. Chunki Sohibqironning farmoyishi bilan Samarqand shahriga yetib borguncha har kunlik yo'l oxirida bir joyda yuz, yana bir joyda ikki yuzta ot tayyorlab qo'yilgan. ... Sohibqiron oldiga kelayotgan elchi yoki xabar olib kelayotgan chopar bu yerga kelsa, otboqarlar uning otini tezda almashtirib berishadi", yana bir misol, "Faqatgina elchilar yurgan yo'l emas, balki Sohibqironga qarashli barcha yerlar ana shunday aloqa vositasi bilan ta'minlangan va shu tarzda Sohibqiron o'ziga qarashli yerlarning barcha nuqtasidan, juda tez sur'atda xabar olib turadi" [9; 96-97-b.], - deya saltanatda elchi va mehmonlar, ma'lumot tashuvchi choparlarning to'xtovsiz, tez sur'atda harakatlanishi uchun "**ot uyurlari bekati**" tashkil etilib, xabar almashinuvi uchun sharoit yaratilgan.

Professor R.S. Samarov Amir Temur davlatning ichki xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan razvedka vositalariga alohida e'tibor qaratganligini ko'ramiz. "Sohibqiron Amir Temurning harbiy san'ati" ilmiy asarida quyidagi fikrni keltirib o'tadi: "Shu bilan birga, xorijdan kelgan shaxslar ustidan qattiq nazorat

<sup>1</sup> Matnda "Xabarnavis".

<sup>2</sup> Voqeanavis – xabar beruvchi

<sup>3</sup> Dorug'a – hokim.

oʻrnatilgan. Jinoyatlar bilan shugʻullanadigan politsiya (mirshab)lar ham mavjud edi. Tuzuklar boʻyicha ushbu politsiya karvon yoʻllari xavfsizligini taʼminlashi, oʻgʻri va bosqinchilarni ushlashi, shariat qonun-qoidalarini buzganlarga qarshi kurash olib borishi lozim edi. Qoʻrboshilar ushbu politsiyaga rahbarlik qilganlar. Bu bilan huquqni himoya qilish Amir Temur davlatida qanday ahamiyatga ega boʻlganligini koʻrishimiz mumkin [3; 189-b.]. Amir Temur ichki razvedka vositalarini nafaqat bir koʻrinishda, balki, barcha sohalarida, aniqrogʻi, dushman oʻzining aygʻoqchilarini yoʻnaltirishi mumkin boʻlgan sohalariga eʼtibor qaratganligiga urgʻu berib oʻtadi.

Bu borada mashhur tarixchi Ibn Arabshoh “Temur oʻz yerlarining barcha tomonlarida oʻz aygʻoqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qoʻygan edi. Ular (josuslar) jumlasidan, uning amaldorlaridan biri amir **Otlamish** boʻlsa, yana biri faqir faqih **Masʼud al-Kuxjoniy** – u Temur devoni asʼhoblarining koʻzi edi. Bu bilan Amir Temurning davlat harbiy xavfsizligini taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlari haqida qimmatli maʼlumotlar qoldirgan. Uning fikriga koʻra ichki xavfsizligini taʼminlashda ichki razvedka organi (aygʻoqchilar) tashkil etilganligi va bir tizimda maʼlumot almashinuvi amaliyotga joriy etganligini koʻramiz. Ichki razvedka xizmati ichki xavfsizlikni taʼminlashda barcha sohada aygʻoqchilarni barcha ulus, viloyat, tuman, qishloq va ovullarda quyidagi koʻrinishlar (bugungi kunda – razvedka organlari)da faoliyat olib borishgan, xususan:

siyosiy sohada – shahar dorugʻasi va xabarnavislarni;

ijtimoiy sohada – sayyidlar, qutvollar;

harbiy sohada – qoʻrboshi va mirshablar;

iqtisodiy sohada – savdogarlar va sayyohlar.



## 2-rasm. Amir Temur saltanatida ichki halqada xabar eltuvchilar tarkibi.

Harbiy sohada razvedka olib boruvchilarning turlari: maxsus kuzatuvchi – aygʻoqchi, tingchi, xufiya va xabargir deb atalgan. Bu razvedka organlari yordamida maʼlumotlar bazasi, yaʼni, “**Yagona axborot maydoni**”ni yaratdi. Sohibqiron razvedka organlari faoliyatini amaliyotga joriy etish bilan ularni doimiy ravishda kuzatuv, boshqaruv va moddiy ragʻbatlantirish tadbirlarini shaxsan oʻzi olib borgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIV–XV-asrlarda Amir Temur saltanati ulkan hududga ega boʻlganligi hamda ushbu katta maydonda tinchlik barqaror topganligining asosiy omili sifatida Amir Temur tomonidan tashkil etilgan saltanat ichki razvedka vositalarining barcha sohani qamrab olganligi natijalari asosida yaratilgan “yagona axborot maydoni” mavjudligi bilan asoslash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Dunyoda, shu jumladan atrofimizda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib bormoqda, [Elektron resurs] / Sh. Mirziyoyev. 2022. – URL.: <https://kun.uz/news>. Murojaat sanasi: 2022.09.10.
2. Temur tuzuklari / Tahrir hayʼati: B. Abduhalimov., Forscha matndan A. Sogʻuniy va H Karomatov

- tarj. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 184 b.
3. Samarov, R.S. Sohibqiron Amir Temurning harbiy san’ati / R.R. Samarov, Yu.A. Axrorov, J.M. Xolmo‘minov, S.R. Sadridinov. – T.: “Ma’naviyat”, 2022. – 280 b.
  4. Xodjixodjaev F.M. Qo‘shin xavfsizligini ta’minlashning retrospektiv tahlili (Amir Temurning Qunduzcha yaqinidagi muhorabasi misolida) / F.M. Xodjixodjaev // O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari. – 2022. – №M1(39). – B. 150-160.
  5. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi / Ibn Arabshoh. – T.: “Mehnat”, 1991. 326-b.
  6. Mixail I.I., Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san’ati, strategiyasi va taktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2017. 304-b.
  7. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: “Sharq”, 2001. 190-b.
  8. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati / H.Sodiqov. – T.: “FAN” 2010. 436-b.
  9. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Klavixo Rui Gonsales de. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406); Tarj., U.Jo‘raev. Sultoniya arxiapiskopi Ioann. Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar. Tarj., B.Ermatov; Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: G‘afur G‘ulom, 2007. – 208 b.
  10. Tolibjonovich, M. T. (2021). The Constitution is a Legal Guarantee for the Development of the Country and the Well-Being of Society. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(2), 105-109.
  11. Отабоев, А. (2023). ЯПОНИЯДА ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛАРИНИНГ ЎЗARO МУЛОҚОТИ ТАЖРИБАСИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 26(1), 126-131.
  12. Najimov, M. (2019). IMPROVEMENT OF NORMATIVE CREATIVITY IS AN IMPORTANT ASPECT OF STATE LEGAL REFORM. *Review of law sciences*, 3(2), 7.
  13. Ibragimov, M. A. (2023). Translation of Structures with Social and Grammatical Gender in the English Language (Based on Feature Film Scripts). In *Sustainable Development Risks and Risk Management: A Systemic View from the Positions of Economics and Law* (pp. 549-553). Cham: Springer International Publishing.
  14. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.
  15. Nasriddinovich, A. A. (2021, July). PROSPECTIVE DIRECTIONS OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In *E-Conference Globe* (pp. 234-237).